

## ONA TILI O`QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR VA ZAMONAVIY TEXNOLIGIYADAN FOYDALANISH

*Ro`zimurodova Sitora Maqsiddin qizi*

*O`zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O`zbek tili va adabiyoti yo`nalishi*

*1-bosqich magistranti*

*+998990741140*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola hozirgi kunda yoshlarni diqqat, e'tiborini darsga qaratish,darslarni zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalangan holda tashkil qilish haqida yoritilgan .Shuningdek, zamonaviy dars jarayoniga yangicha yondashuv,yangicha munosabat hamda darsni mohirlik va idrok bilan olib borish haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** zamonaviy, metodlar, texnologiya, baliq skeleti, zamonaviy dars turlari, ona tili o`qituvchisiga qo`yilgan talablar...

**Kirish.** Mustaqillik sharofati bilan yoshlarning bilim olishiga ,tarbiyasiga jiddiy e`tibor qaratila boshlandi.” Ta’lim tog`risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi “ ning qabul qilinishi buning yorqin namunasidir.Davlatimiz rahbarining 2020-yil 23-sentabr 637-sonli “O`zbekiston Respublikasining Ta`lim to`g`risida ”gi qonunning 36-moddasida “Ta`lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat” qismida „Ta`lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat ta`limni modernizatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladi hamda yangi ta`lim texnologiya va resurslarini ishlab chiqishga, ularni sinovdan o’tkazishga hamda ta`lim jarayoniga joriy etishga qaratilgan” ligi haqida fikr yuritilgan .[1;22]Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev: ‘‘Yangi O`zbekistonning asosiy ustuni –bilim,ta`lim va tarbiya bo`ladi” – deb ta`lim va tarbiyaga alohida urg`u beradi.

Ta`lim jarayonida, xususan,ona tili ta`limida zamonaviy, yangi pedagogik texnologiyalarni qo`llashni o`rganish va rivojlantirish, zamon talabiga javob beradigan dars jarayonini tashkil qilish dars samarasini oshirishga katta yordam beradi.Shu boisdan, o`qituvchi til darslarida zamonaviy metodlar va texnologiyalardan fodalangan holda o`z bilimi, ko`nikma va malakalarini mashg`ulotlar vositasida o`quvchilarga yetkazadi,o`quvchilar esa mazkur tajribani o`zlashtirib boradi.Tegishli metod va texnologiyalar bo`lmas ekan qo`yilgan maqsad va vazifalarning amalga oshirilishi samarasiz bo`ladi.

### **Adabiyotlar tahlili va metadalogiyasi**

Ona tili o`qitish tarixining ildizlari ancha oldingi davrlarga borib tarqaladi.Bu davrlarda yashab ijod qilgan O`rta Osiyolik qomusiy olimlarimiz ilm-u fan sohasida katta yutuqlarga erishgan.Markaziy Osiyoning taniqli olimlaridan: Abu rayhon

Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Koshg`ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarimiz ulkan kashfiyotlar yaratib o`z xalqining rivojiga hissa qo`shganlar. XX asr boshlarida Turkistonda ta`limiy g`oyalarning tarqalishi va rivojlanishi tufayli ta`lim metodlari haqida ilmiy asarlar, metodik qo`llanmalar va maqolalarning yaratilishiga olib keldi.O`quv qo`llanmalar va dasturlar yaratishda mahalliy ziyolilardan Fitrat, Hamza hakimzoda Niyoziy, Munavvar qori, Xalil Qayumov Shorasul Zunnun kabi jonkuyar mutafakkirlarimiz faol ishtirok etdi.


XX asr o`rtalariga kelib 1944- yilda Murod Shams “Orfografiya o`qitish metodikasi”, 1950- yilda “O`zbek tili o`qitish metodikasi” asarlarini chop etdi. 1975- yilda Y.G`ulomov, I.Rasulov , H.Rustamov, B.Mirzaahmedov “O`zbek tili o`qitish metodikasi” fanining nisbatan yangiroq variantda o`quv qo`llanmasini chop etdi.

Mustaqillikdan keyin ham ona tilini o`qitishda yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanishga bag`ishlangan uslubiy qo`llanmalar ko`plab yaratildi. Jumladan, 2010-yilda B.To`xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodovalarning “O`zbek tili o`qitish metodikasi”, 2014- yilda A.Xudoyberdiyev, M.Boltayev, F.Badriyev “O`zbek tili va adabiyot o`qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” uslubiy qo`llanmasi nashr etildi. Mazkur qo`llanmalarda “ona tili” fanidan amaliy mashg`ulotlarda foydalanilgan innovatsion pedagogik texnologiyalar bo`yicha tavsiyalar o`z ifodasini topgan.

### **Muhokama va natijalar**

Zamonaviy metodlar hozirgi kunda interfaol metodlar yoki interaktiv metodlar deb yuritiladi. Ona tili darslarini o`qitishda bir qancha zamonaviy metod turlari bor bo`lib ularda: akvarium metodi, bahs-munozara metodi, baliq skeleti metodi, charxpalak texnologiyasi, insert metodi, sinkveyn texnologiyasi, klasster metodi, kungaboqar texnologiyasi, blitz-so`rov texnologiyasi kabilar shular jumlasidandir.

### **Baliq skeleti metodi-**



*Ta'rifi*

Muammoni qo`yish va hal qilishning mazkur modeli bir qator muammolarni ta`riflash va yechib ko`rishga imkon beradi.

**Strategiya:**

1. Bir varaq oq qog`ozda (vatman yoki A-3 varag`i) baliq skeleti chiziladi (boshi, kemirchagi, qovurg`alari).
2. Yuqoridagi «suyagiga» muammo ifodalanishi, pastidagiga esa - ushbu muammo mavjudligini (yoki uni hal qilish yo`llari, o`qituvchi o`z oldiga qo`yan maqsadga qarab) isbotlovchi faktlar yozib qo`yiladi.
3. To`ldirilgan sxemaning taqdimoti.
4. Foydalanish doiralari

Tabiiy va aniq fanlarda, muammoli ta`lim berish uslubidan foydalanganda.


#### Afzalliklari

Ushbu sxema muammolarning o`zaro bog`liqligi, ularning kompleks xususiyatlarini aks ettiradi.

#### Qiyinchiliklar

Muammolarni ifodalashda qiyinchiliklarga duch kelish mumkin.

2014- yilda A.Xudoyberdiyev, M.Boltayev, F.Badriyev “O`zbek tili va adabiyot o`qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” uslubiy qo`llanmasida “ baliq skeleti” metodi quydagicha namuna bilan yoritilgan.[2;38]



Malakali metodist o`qituvchilarimiz dars samaradorligini oshirishning yangi metodlarini o`ylab topmoqdalar.Ona tili metodikasida zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan dars turlari til ta`limini samaradorligini oshirishga yordam beradi.O`qituvchi zamonaviy texnologiyalar yordamida darsni tashkil qilar

ekan, turli texnik vositalardan (kompyuter, proyektor, elektron doska va hokozo) foydalanishi mumkin.Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishdan asosiy maqsad o`quvchilarni darsga qiziqishlarini orttirish, o`rganilgan bilimlarni amalda qo'llay olishga ko`maklashshish,ta`limga bo`lgan munosabatini ijobiy tomonga o`zgartirish funksiyasini bajaradi.Ona tili darslarida o`quvchilarni mustaqil va erkin fikrlash ,ijodiy izlanuvchan,milliy g`oya va an'analarimizni qadrlaydigan,vatanparvar inson qilib tarbiyalashda ona tili o`qituvchisining mas'uliyati kattadir.

### **Xulosa**

Hozirgi kunda bo`lajak til va adabiyot o`qituvchilarida tilni o`qitishga oid usul va metodlar bilan tanishish asosida tilni o`rgata olish qobiliyatini rivojlantirish va shakllantirish lozim.Shuni ta'kidlash joizki,ona tili o`qituvchisi o`quvchining so`z boyligini oshirish va boyitishning xilma-xil usullarini bilishi, til imkoniyatlaridan unumli foydalanishni o`rganishi, egallagan nutqiy ko`nikma va malakalarni mustahkamlash va takomillashtirishi, ularni amaliyotga tatbiq etish yuzasidan izchil ma'lumotlarga ega bo`lishi lozim.Fanda ona tili o`qituvchisiga qo`yilgan talablar quyidagicha keltirilgan.[3;56]

1. Darsni zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil qilish,maqsad va vazifani to`g`ri belgilash
2. O`quvchilarga milliy mafkura va istiqlol g`oyalarini singdirish
3. Dars mavzusini mukammal yoritishga xizmat qiladigan zamonaviy o`quv- texnika vositalaridan unumli foydalantirish
4. O`quvchilarni til hodisalarini kuzatish, farqlashga yo`naltiradigan kompyuter dasturlari,multimedia, xizmatidan foydalanishga o`rgatish.

Shuningdek,u yoshlarning axloqiy-ma'naviy tarbiyasi bilan shug`ullanishi,ularga sharqona muloqat odobi,milliy an'analarimizga hurmat,ona Vatanga muhabbat tuyg`usi kabi zaruriy xislatlarni singdira bilishi lozim.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati**

1. 2020-yil 23-sentabr 637-sonli “O`zbekiston Respublikasining Ta`lim to`g`risida ”gi qonuni
2. Xudoyberdiyev.A Boltayev.M .Badriyev.F O`zbek tili va adabiyot o`qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish .Uslubiy qo`llanma,Samarqand,2014
3. To`xliyev.B Shamsiyeva.M Ziyodova.T O`zbek tili o`qitish metodikasi.- Toshkent,2010
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)